

TERMIZ UNIVERSITETI

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-badiiy gazeta

BESHIK DAN QABRGACHA ILM IZLA!

1990-yil may oyidan chop etila boshlagan



№5(376)-son, 2025-yil 28-aprel, dushanba



QR kodni skaner qilib,
TerDU web-sahifasiga o'ting!



(2-sahifaga qarang)

Jarayon

XALQARO HAMKORLIKDA YANGI SAHIFA OCHILDI

Muloqot davomida Karlov universiteti rahbariyati TerDU bilan ilmiy-ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi. Universitet rektori uzoq yillik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish hamda professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi dasturlarini kengaytirishga tayyor ekanligini ta'kidladi.

Termiz davlat universiteti delegatsiyasi Chexiyaning nufuzli Karlov universitetiga tashrifi doirasida ikki oliygoh o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan muhim muzokaralar o'tkazdi.

Uchrashuv chog'ida ta'kidlanganidek, TerDU va Karlov universitetining professor-o'qituvchilari so'nggi 22 yil davomida ilmiy

hamkorlik olib borib, arxeologik tadqiqotlar yo'nalishida samarali natijalarga erishib kelmoqda.

Muloqot davomida Karlov universiteti rahbariyati TerDU bilan ilmiy-ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi. Universitet rektori uzoq yillik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish hamda professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi dasturlarini kengaytirishga tayyor ekanligini ta'kidladi.

Tashrif yakunida TerDU rektori A. Toshqulov va Karlov universiteti rahbariyati o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash hamda universitetimizni TOP-1000 reytingiga kiritishga ko'maklashish bo'yicha rasmiy kelishuv hujjati imzolandi.

(2-sahifaga qarang!)

Xushxabar



IDROK – O'Z SO'ZINI AYTADI!

TerDU talabalari "Nazariy mexanika" fanidan IV xalqaro onlayn olimpiadada munosib natijani qayd etishdi.

Turkmaniston davlat energetika universitetida bo'lib o'tgan tanlovda dunyoning nufuzli 213 ta universitetidan 681 nafar talaba qatnashdi.

Ushbu olimpiadada Termiz davlat universiteti jamoasi jamoaviy bahslarda 2-o'rinni egalladi.

Shuningdek, yakkalik bahslarda Fizika ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Yorqin Valmurodov 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Termiz davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti jamoasini ushbu yutuqlari bilan tabriklaydi.

TAHRIRIYAT

**"REKTOR KUBOGI"
G'OLIBLARI
TAQDIRLANDI**

5

PhD VA DSc HIMOYASI JARAYONIDA...

PhD va fan doktori (DSc) himoyasida ma'ruzachi saviyasi, fikr yuritish chuqurligi, ilmiy pozitsiyasi, nutqning ilmiylik darajasi va savollarga javobdagi

intellektual yondashuv qanday farqlanishi kerak?

(3-sahifaga qarang!)



**AMIR
TEMUR
FENOMENI
ADABIY**

MANBALARDA

6

XALQARO HAMKORLIKDA YANGI SAHIFA OCHILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini Samarqand shahrida o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori ijrosi doirasida Karlov universitetida bo'lgan Termiz davlat universiteti delegatsiyasi "O'zbekiston: bebaho madaniy merosi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etdi.

Chexiyaning ilmiy doira vakillari mazkur universitetda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar, professor-o'qituvchilar ishtirok etgan tadbirda yurtimizning betakror qadimiy merosi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi hamda universitet hamkorligida ishlab chiqilgan dastur asosida tarannum etildi.

Shundan so'ng delegatsiya a'zolari Shveysariyada ham "O'zbekiston: bebaho madaniy meros" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etishdi.

TerDU rektori A.Toshqulov boshchiligidagi delegatsiya Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan Jeneva xalqaro munosabatlar va

ma'naviy-ma'rifiy tadbir mazkur ta'lim dargohidan tashqari O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahrida joylashgan BMT



taraqqiyot instituti hamda Lozanna universiteti professor-o'qituvchilariga yurtimizning o'ziga xos jihatlarini videoroliklar hamda ko'rgazmalar orqali targ'ib qilishdi.

– O'zbekistonning boy tarixi, Samarqand afsonalari haqida tarixiy manbalarga duch kelganman. Ushbu tashrifingizdan keyin albatta sizning yurtingizga borishni reja qildim, – deydi mezbon oliy ta'lim muassasasi professori David Rodogno. Ma'lumot o'rnida,

vakolatxonasi va boshqa xalqaro tashkilotlar huzuridagi Doimiy vakolatxonasida ham tashkil etildi.

Taomilga ko'ra, tadbir ishtirokchilariga milliy qadriyatlarimiz namunalari sovg'a qilindi.

1559-yilda tashkil topgan Jeneva xalqaro munosabatlar va taraqqiyot institutida 19 000 nafar talaba tahsil olsa, shundan 45% xorijlik talabalar.

Institut ilm-fan, huquqshunoslik, xalqaro munosabatlar va tibbiyot sohalarida yetakchi hisoblanadi. Jeneva BMTning Yevropa shtabi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), Qizil Xoch va boshqa xalqaro tashkilotlar joylashgan shahar. Shu sababli, UNIGE talabalari xalqaro munosabatlar va siyosat sohasida noyob imkoniyatlarga ega.

QS World University Rankings: 100-120 o'rinlar atrofida Times Higher Education (THE) Rankings: Yevropa va jahonning kuchli 150 universitetlari qatorida Mazkur institut mas'ullarining taklifiga asosan TerDU rektori A.Toshqulovga kampusdagi sharoit va o'quv jarayonlari tanishtirildi. Jarayonda tomonlarning manfaatli hamkorlik aloqalari bo'yicha taklif va rejalari muhokama etildi.

A.Toshqulov, shuningdek, Lozanna universiteti mas'ullari bilan ham uchrashib, hamkorlikda arxeologik izlanishlar olib borish, TerDUdagi yo'nalishlarni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, xalqaro reytingga kiritishda amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha dastlabki muzokaralar olib bordi.

G'afur TOG'AYEV, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor.
(Toshkent – Praga – Bern: "Termiz universiteti" uchun maxsus).

NAVBATDAGI APPARAT YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

Universitet Apparat Kengashining navbatdagi yig'ilishida ta'lim sifatini oshirish, imtihonlarni tashkil etish va maktablar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

2025/2026-o'quv yili uchun bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar tuzilmasi xalqaro TOP-300 OTMLar dasturlari asosida qayta ko'rib chiqildi. Yangi o'quv dasturlari loyihalari ishlab chiqilishi, 25-apreldan 1-maygacha himoya qilinishi va 2-mayga qadar tasdiqlash uchun topshirilishi belgilandi. Tahlil qilinmagan yo'nalishlar bo'yicha kafedralardan topshiriq ijrosini o'z vaqtida bajarishlarini ta'minlash bo'yicha ogohlantirildi.

2024/2025-o'quv yili bahorgi semestri yakuniy nazorat imtihonlarini tizimli va shaffof tashkil etish bo'yicha jadvallar tasdiqlandi. Imtihonlarni adolatli o'tkazish tartibi belgilab berildi. Ijro holati yuzasidan umumlashtirilgan ma'lumotlar 30-iyunga qadar taqdim etilishi shart qilib ko'rsatildi.

Oltinsoy tumanidagi 15 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi bilan amalga oshirilayotgan hamkorlik ishlari tahlil qilindi. Maktablarga laboratoriya uskunalar, o'quv adabiyotlari yetkazib berilgani, ustoz-shogird tizimi yo'lga qo'yilgani va fan hamda sport musobaqalaridagi faol ishtirok qayd etildi. Har bir kafedradan chora-tadbirlar dasturi taqdim etilishi belgilandi.

Universitet ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar doirasida fanlardan qayta o'qishni tashkil etish platformasi – <https://qaytaoqish.termsu.uz/> taqdimot qilindi.

Universitet professor-o'qituvchilarining ilmiy loyihalar bo'yicha fakultet va kafedralar kesimidagi monitoringi e'lon qilinib, sustkashlikka yo'l qo'yayotgan mas'ullar ogohlantirildi.

Yakunda barcha mas'ullarga aniq vazifalar belgilab berildi. Ularning ijrosi bo'yicha muddat va mas'ul shaxslar belgilandi.

Odiljon HAMIDOV, Universitet Kengashi kotibi.

BUNYODKORLIK VA BIZNES LOYIHALARI TAHLILI

Termiz davlat universiteti rektori huzurida kampusda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda binolarda olib borilayotgan joriy ta'mirlash jarayonlarining holati muhokama etildi. Shuningdek, mas'ullar tomonidan universitet hududida tashkil etiladigan chiqindini saqlash va saralash nuqtalarining loyihasi taqdimot qilindi.

Bundan tashqari, universitetga qarashli Darband o'quv-

amaliyot direksiyasidagi tabiiy resurslar va infratuzilmadan foydalanib, uni ishbilarmonlik subyektiga aylantirish orqali "Spin off" biznesni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Yig'ilish davomida rektor barcha loyihalarni atroflicha o'rganib chiqib, mavjud ishlarni jadallashtirish, ekologik talab va innovatsion yondashuvlarga alohida e'tibor qaratish bo'yicha tavsiyalar berdi.

TerDU Matbuot xizmati.

Olimlar safida

DISSERTATSIYALAR MUVAFFAQIYATLI HIMOYA QILINDI!

Termiz davlat universiteti rahbariyati va jamoasi ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan quyidagi professor-o'qituvchilarni samimiy qutlaydi:



Shaymatova Nargiza Ashurovna (Moliya kafedrasida o'qituvchisi) – "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" ixtisosligidan "Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish" mavzusida iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);



Choriyev Siroj Hamzayevich (Zoologiya kafedrasida o'qituvchisi) – "Zoologiya" ixtisosligidan "Surxondaryo vohasida yeryong'oq o'simligi nematodalar va ularning parazit turlariga qarshi kurash choralari" mavzusida biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);



Qodirova Aziza Bekmurod qizi (Psixologiya kafedrasida dotsenti) "Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi" ixtisosligidan "Termiziy allomalar asarlarida yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid qarashlarning psixologik asoslari" mavzusidagi psixologiya fanlari doktori (DSc);



Mardanova Gavhar Dobilovna (Zoologiya kafedrasida katta o'qituvchisi) "Zoologiya" ixtisosligidan "Surxondaryo viloyatida qon so'ruvchi chivinlar (Culicidae: Anopheles) faunasi va ekologiyasining zamonaviy holati" mavzusida biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

TAHRIRIYAT

Professor minbari

PhD VA DSc

HIMOYASIDA JARAYONIDA...

PhD va fan doktori (DSc) himoyasida ma'ruzachi saviyasi, fikr yuritish chuqurligi, ilmiy pozitsiyasi, nutqning ilmiylik darajasi va savollarga javobdagi intellektual yondashuv qanday farqlanishi kerak?

1. Ilmiy fikrlash saviyasi

PhD darajasida tadqiqotchi ilmiy metodlar, konsepsiyalar, terminlar bilan ishlay olishini, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega ekanini ko'rsatadi. U muammoni yechishga harakat qiladi, lekin hali chuqur nazariy maktabga asoslanmagan bo'lishi mumkin.

Fan doktori esa muammoni faqat tahlil qilmaydi, ilmiy muammoga o'z konseptual yondashuvini taklif qiladi. U mavjud nazariyalarni qayta ko'rib chiqadi, zarurat tug'lsa ularni rad etadi yoki o'zgartiradi, ya'ni o'zi maktab darajasida fikrlaydi.



2. Mavzuni anglash va talqin qilish darajasi

PhD tadqiqotchisi o'z mavzusini yaxshi biladi, uni izchil bayon qiladi, manbalar bilan ishlay oladi. Ammo u mavzuni ko'proq o'z chegarasida tahlil qiladi, sistematik o'zaro bog'liqliklar esa nisbatan cheklangan bo'lishi mumkin.

Fan doktori esa mavzuni keng ilmiy kontekstda ko'radi — tarixiy taraqqiyotini, zamonaviy qarashlarni, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni, boshqa fanlar bilan uzviy aloqasini tahlil qiladi. Bu bosqichda talqin makrotizim darajasiga ko'tariladi.

3. Ilmiy pozitsiya

PhD odatda mavjud yondashuvlarga tayanadi, o'z pozitsiyasini ularning doirasida asoslaydi. Hali ilmiy fikr yuritishda "ko'proq isbotlash" usulini qo'llaydi.

Fan doktori esa o'ziga xos, kuchli ilmiy pozitsiyaga ega bo'ladi. U "so'zlovchi emas", balki "gapiruvchi"ga aylanadi: fikr yuritadi, bahs qiladi, konsepsiya taklif etadi, ilmiy pozitsiyani himoya qiladi.

4. Tilda fikr ifoda qilish darajasi

PhD da nutq izchil, lo'nda va ilmiy bo'lishi kerak. Ba'zan haddan ortiq akademik bo'lishi, uquvsiz stilistik yuklamalar bilan to'lib ketishi mumkin.

Fan doktorida esa nutq chuqur semantik yadroga ega, og'zaki tilda bayon qilinsa ham, unda ilmiy tafakkur oqimi, kategoriya, konseptlar ko'zga tashlanadi. Har bir so'z nazariy yuk ko'taradi, til vositalari tanlangan va maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Savollarga javobdagi farqlar

PhD savolni to'g'ri tushunadi, uquvli, ehtiyotkor javob beradi. Ba'zida savolga javob berishda "himoyalanaadi", ya'ni o'z fikrini imkon qadar ehtiyotkor tarzda asoslaydi.

Fan doktori esa savolni kengroq kontekstda tushunadi, uni fikr yuritish maydoniga aylantiradi. U savoldan chiqib, ilmiy bahs ochishi, savolga nazariy baholov bilan javob berishi, mavjud nuqtayi nazarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishi mumkin.

6. Ilmiy jasorat

PhD himoyasi — bu ilmiy maktabga kirish eshigi. U yerda siz o'rganasiz, shakllanasiz, fikr bildirasiz.

Fan doktorligi esa ilmiy maktab ichidagi o'zingizning egalik pozitsiyangizni e'lon qilishdir. Siz endi o'rganmayapsiz, siz — berasiz, bahslashasiz, izohlay olasiz, kimgadir yo'l ko'rsatasiz.

Xulosa:

PhD — bu ilmiy tafakkur maktabiga kirish darajasi.

Fan doktori — bu o'sha maktabning o'z ichida yo'l yaratgan ustoz.

Shuning uchun PhD uchun muhim savol: "Bu masalani qanday hal qildingiz?"

Fan doktoridan esa so'raladi: "Siz bu muammoni qanday qayta ko'rish, konseptual izohlash yoki nazariy asoslash tarafdamisiz?"

Baxtiyor MENGLIYEV,
filologiya fanlari doktori, professor.



Termiz davlat universitetida yosh professor-o'qituvchilar, tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun "Ilmiy loyihalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish" bo'yicha davomli seminar-trening mashg'ulotlari boshlandi.

Profilaktika

DAVOMLI SEMINAR-TRENING BOSHLANDI

Dastlabki seminar-trening universitet ilmiy-tadqiqot markazida tashkil etilib, ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Shuningdek, 30-aprelga qadar davom etayotgan "Akademik harakatchanlik" dasturi tanloviga tadqiqotchilarning ishtirokini ta'minlash bo'yicha yo'riqnomalar berildi.

Mazkur dastur orqali yosh olimlar ilmiy tashkilot va oliy ta'lim muassasalarining noyob ilmiy obyektlari, zamonaviy ilmiy laboratoriya va tajriba-konstruktorlik byurolaridan bepul foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

TerDU Matbuot xizmati.

"QO'SHMA REJA" ASOSIDAGI TARG'IBOT TADBIRI KO'LAMI KENGAYMOQDA

Xabaringiz bor, haftaning har Juma kuni viloyat prokuraturasi hamda vohadagi OTMlar o'rtasida tuzilgan "Qo'shma reja" asosida viloyat prokuraturasi xodimlari universitetlarda bo'lishib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan talabalar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurash, korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish va ularga "halollik vaksinasi" singdirish maqsadida targ'ibot tadbirlari o'tkazishmoqda.

TerDUda bo'lgan mas'ullar talabalar ham jamiyatning faol a'zolari sifatida korrupsiya illatiga qarshi murosasiz munosabatda bo'lib, o'z bilimi va tashabbuskorligi bilan davlatimizning porloq, adolatli kelajagini yaratishga hissa qo'shmog'i lozimligini qayd etishdi.

Shu o'rinda bir eslatma!

Hurmatli talabalar, agarda siz universitetda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga duch kelsangiz universitetning



Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limining 76-221-7710 raqamli Ishonch telefoniga, yoki bo'limning Korrupsion holatlar bo'yicha murojaat boti: https://t.me/TerDUantiCorruption_bot elektron platformasi, yoki 91-575-2001, 93-799-0101, 98-775-7758 uyali aloqa telefonlari orqali murojaat qilishingiz mumkin.

Ulug'bek DEVONOV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish
"Komplayens-nazorat" tizimini
boshqarish bo'limi.

Shohsupa

BARDAVOM G'ALABALAR


Sambo bo'yicha Toshkent shahri mezbonlik qilgan Osiyo va Okeaniya davlatlari chempionatida Termiz davlat universiteti talabalari ham munosib ishtirok etdi.

Nufuzli musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra 4 nafar talabamiz O'zbekiston terma jamoasiga 3 ta oltin va 1 ta bronza medallar shodasini taqdim etdi.

Iftixor etadigan sportchilarimiz:
1-o'rin: 57 kg. vaznda – Xurshida Abduvohidova,
1-o'rin: 72 kg. vaznda – Dilnoza Qaimova,

Para sportchilarimiz:

1-o'rin: 88 kg. vaznda – Turg'un Abdiyev,
3-o'rin: 64 kg. vaznda – Isoqjon Abdurahmonov medalini qo'lga kiritdi.
Bu yutuqlar, albatta, katta dovonlar uchun trampolin vazifasini o'taydi.



O'z muxbirimiz.

Qizg'in sur'atlarda E'TIROF, PREMYERA, RAG'BAT...

2024-2025 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga sazovor bo'lgan bakalavriat bosqichi talabalari va "Eng faol yil talabasi-2024" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi sovrindorlari munosib tarzda rag'batlantirildi.

Unda ishtirok etgan rektorimiz har sohada universitet hayotida ro'y berayotgan yangilanish va muvaffaqiyatlarga to'xtalib, bu natijalarda jamoaning professor-o'qituvchilarning ezgu maqsad sari birlashgani katta ahamiyat kasb etayotganligini ta'kidladilar.

Ma'lumot o'rnida 2024-2025 o'quv yilida 13 nafar talabamiz Prezident va nomli davlat stipendiyalariga sazovor bo'lishdi. A.Toshqulovning buyrug'iga ko'ra talabalarimizning ilmiy rahbarlari ham bir martalik pul mablag'i bilan rag'batlantiriladigan bo'ldi.

**TerDU rektori
premyeradan so'ng "Janub
gavhari" talabalar teatr
studiyasi ijodiy jamoa
vakillarini qabul qildi.**

Samimiy muloqotda sahna ortidagi mashaqqatlar tilga olindi, talabalarining ijrolari e'tirof etildi. Ta'kidlanganidek, turli yo'nalishlarda tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni bir manzilda jamlagan "Janub gavhari" talabalar teatr studiyasi universitetning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi tashabbuslarida yangi davr boshlanganidan darak



PREMYERADAN SO'NG. YUZMA-YUZ

bermoqda. Uchrashuvda ayni jihatlar alohida urg'ulanib, talabalarining takliflariga quloq tutildi.

E'tiborlisi rektor tomonidan barcha tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadigan bo'ldi. Bundan tashqari, tegishli buyruq bilan havaskor aktyor talabalarga bir martalik

stipendiya miqdorida pul mukofoti va yil yakuniga qadar har oyda bazaviy stipendiyaning 50 foizi miqdorida qo'shimcha rag'bat berilishi belgilandi.

Shuningdek, universitet hisobidan talabalar uchun Samarqand va Buxoro viloyatlari bo'ylab sayohat

tashkil etiladigan bo'ldi. "Momo yer" asarini sahnalashtirish jarayonida iste'dodli talabalarni kashf etishda yaqindan yordam bergan tashkilotchilar ham rag'batlantirildi.



ANSHLAG: "MOMO YER" SPEKTAKLI!

Shundan so'ng, Termiz davlat universitetining "Janub gavhari" talabalar teatr studiyasi tomonidan buyuk adib Chingiz Aytmatovning mashhur "Momo yer" asari asosida sahnalashtirilgan spektaklning premyerasi boshlandi.



Tomosha zalida rektor A.Toshqulov ishtirok etib, havaskor aktyorlarning chiqishlarini, ijro mahoratini xayrixohlik bilan kuzatib bordi.

Mazkur sahna asarida universitetning iqtidorli talabalari ishtirok etib, tomoshabinlarga ulug' yozuvchi qalamiga xos teran mazmun va o'tmish davr ruhini yorqin aks ettirishga muvaffaq bo'lishdi.

– Spektakl menga manzur bo'ldi. E'tirof etish kerakki, talabalarimiz sahnadagi qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalarini ochib berish uchun katta mehnat



qilganliklari shundoqqina ko'rinib turibdi. Havaskor aktyorlarning plastik harakatlari, ovoz tonlari, intonatsiya, yuz ifodalari – bularning barchasi ruhiy holatni ifodalashda uyg'unlik kasb etgan. Talabalarimiz bugun universitet ziyolilari olqishiga sazovor bo'lishdi, ishonamanki, bunday olqishlar katta sahnalarda ham bardavom bo'ladi, – deydi Musiqiy ta'lim kafedrasi dotsenti Abduraim Tursunov.

Talabalarining ijodiy yondashuvi, sahnadagi tabiiy harakatlari va obrazlarning samarali talqini zalda to'planganlar qalbida kuchli taassurot qoldirdi.

Shukurillo TOSHPOLATOV.
Muallif olgan suratlar.

"UNIVERSIADA – 2025"

YENGIL ATLETIKA

hududiy bosqich, TerDU talabalarining zafarli odimi

Termiz shahridagi "Alpomish" arenasida "Universiada – 2025" sport musobaqasining yengil atletika yo'nalishi bo'yicha viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Universitetning Sport faoliyati fakulteti talabalari esa bu musobaqada o'z mahorati, jasorati va yuksak tayyorgarligi bilan munosib ishtirok etdi. Ular nafaqat faxrli o'rinlarni egallashdi, balki muhim bo'lgan imkoniyat – respublika bosqichiga yo'llanmani ham qo'lga kiritishdi.

G'olib va sovrindorlar bilan tanishish:

Sevara Eshqulova – 100m: 1-o'rin, 200m: 1-o'rin

Oyzira Jo'raqulova – 1500m: 1-o'rin, 3000m: 1-o'rin

Mohinabonu Ro'ziyeva – 400m: 2-o'rin

Gulruhbegim Primova – 400m: 3-o'rin, 800m: 3-o'rin

Sitora Norboyeva – 1500m: 3-o'rin

Sherzod Kurbanov – Uzunlikka sakrash: 1-o'rin, Uch hatlab sakrash: 1-o'rin

Islom Oltiboyev – 200m: 1-o'rin, 400m: 2-o'rin

Soib Xolliyev – 400m: 2-o'rin, 800m: 3-o'rin

Anvar Jo'raqulov – 100m: 3-o'rin

Bu – nafaqat raqamlar va natijalar, bu – mehnat, iroda va g'alabaga bo'lgan ishtiyoqning yorqin timsolidir!

Baxtiyor OMONTURDIYEV,
Sport o'yinlari kafedrasi professori.

“REKTOR KUBOGI” G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI

E’tirof



TerDUda tashkil etilgan “Talabalar festivali” tadbiri doirasida “Rektor kubogi” musobaqasi va turli tanlovlar g‘oliblari munosib rag‘batlantirildi.

Joriy yilning 25-mart sanasidan boshlab “Rektor kubogi” musobaqalariga start berilganidan xabaringiz bor. O‘tgan davr mobaynida sportning 5 ta turi bo‘yicha qizg‘in va muvofiq bahslar bo‘lib

o‘tdi. Bellashuvlarda yaxshi natija ko‘rsatgan faxrli o‘rin sohiblari va jamoalar pul mukofotlari bilan rag‘batlantirildi.

Shuningdek, “Zakovat”, “QVZ”, “Osh chempionati”, “Kitobxonlik” tanlovlari hamda “Janub qalqonlari” harbiy sport musobaqasi g‘oliblari ham munosib taqdirlandi. Tadbirda ishtirok etgan universitet rektori ko‘rsatmasiga asosan rag‘batlantiruvchi pul mukofotlarining miqdori ikki barobarga oshirildi.

– Sportchi-yu, intellektual bilim sohiblarining moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishi ularning zimmasiga mas’uliyat yuklaydi, yurt taqdiriga nisbatan daxldorligini oshiradi. Ana shunday yoshlar esa davlatning eng katta boyligi, – dedi A.Toshqulov.

Taqdirlash marosimi ko‘ngilochar konsert dasturiga ulanib ketdi. Bu kun ham talabalar hayotidagi esda qolarli sahifa bo‘lib qoldi.

Izzatullo TOLIPOV,
Universitet Yoshlar ittifoqi
boshlang‘ich tashkiloti yetakchisi.

Termiz davlat universiteti talabalari tashabbusi bilan viloyat markazidagi “San’at saroyi”da “O‘zbekiston – Vatanim manim” shiori ostida keng qamrovli ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Ushbu tadbir yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashda muhim siyosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda xalq deputatlari viloyat kengashi deputatlari nuroniylar vohadagi ilmiy doira vakillari viloyatimizda faoliyat yuritayotgan barcha milliy madaniy markazlar rahbarlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Rektorimiz A.Toshqulov davlatimiz rahbarining xalqaro maydonda ham turli millat va elatlarni ezgu maqsadlar sari birlashtirish borasidagi tashabbuslari-yu erishilayotgan olamshumul voqealiklar xususida to‘xtalib, yurtimizda yashayotgan 130 ga yaqin turli millat vakillarini bir maqsad sari jipslashtirishda bu tadbirning ahamiyatini ta’kidladi.

“O‘ZBEKISTON – VATANIM MANIM”: MILLATLARARO TOTUVLIK VA UMUMMILLIY BIRLIK TIMSOLI

Shukuh



Badiiy dastur davomida 30 ga yaqin millat va elatlarning milliy kuy-qo‘shiqlari va raqslari ijro etildi. Bu tom ma’noda O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va ahillik, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat,

madaniy merosga ehtirom ruhida yuksak siyosiy ong va fuqarolik mas’uliyatining yorqin ifodasi bo‘ldi.

Abdulla XUDOYQULOV,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
dotsent.

“MILLIY QADRIYATLAR” FESTIVALIDAN REPORTAJ



O‘zbekiston xalqining boy tarixi, sermazmun an’analari va betakror madaniy merosi – bu millatimiz g‘ururi va kelajak avlodga qoldiriladigan bebaho xazina hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida yoshlarimiz qalbida milliy o‘zlikni mustahkamlash, ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan urf-odat va qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni keng jamoatchilikka yetkazish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu maqsadda, Milliy libos va san’at fakulteti o‘quv binosi hududida yurtimizning bebaho merosi – urf-odat, an’ana va qadriyatlarimizni yosh avlod qalbiga singdirish, ularni keng jamoatchilik orasida targ‘ib etish maqsadida “Milliy qadriyatlar” festivali o‘tkazildi.

Festival doirasida so‘z olgan, Milliy libos va san’at fakulteti dekani dotsent H.To‘rayev so‘zga chiqib, bu

festival nafaqat o‘quv jarayonining bir qismi, balki yoshlarning milliy o‘zlikni anglash yo‘lida muhim qadamlardan biri ekanligini ta’kidladi.

Festival doirasida o‘tkazilgan tadbirlar milliylik ruhini uyg‘otdi. Qadimiy xalq o‘yinlari – “Chillak”, “Beshtosh”, “Arqon tortish” kabi o‘yinlarda talabalar katta ishtiyoq bilan qatnashib, jamoaviylik va birdamlik fazilatlarini namoyon etishdi. Bu o‘yinlar orqali yoshlar nafaqat xush kayfiyatga ega bo‘lishdi, balki bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan an’analarini jonli holda his etishdi.

Festivalning taomlar burchagida esa turli hududlarga xos bo‘lgan milliy taomlar – osh, somsa, norin, shashlik, halim kabi taomlar tayyorlanib, mehmonlarga tortiq etildi. Har bir taomning tarixi, tayyorlanish sirlari va ma’naviy jihatlari haqida ma’lumot berildi. Bu esa yoshlarning madaniy va gastronomik bilimlarini yanada boyitdi.

Shuningdek, milliy ohanglar, dutor, rubob, surnay kabi cholg‘ular jo‘rligida ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar qalblarga ko‘tarinkilik ulashdi. Yurtimizning mashhur hofizlari va iqtidorli talabalar ijrosida yangragan milliy qo‘shiqlar tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Raqs jamoalari tomonidan sahnalashtirilgan an’anaviy raqsalar esa festivalga yorqin tus bag‘ishladi.

Eng diqqatga sazovor tadbirlardan biri – milliy liboslar ko‘rgazmasi bo‘ldi. Bu yerda turli davrlarga va hududlarga mansub liboslar namoyish qilindi. Naqshlar, ranglar va tikilish uslublari orqali xalqimizning didi, dunyoqarashi va estetik qarashlari ko‘rsatildi. Ko‘rgazma ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Bundan tashqari, festival davomida sahna ko‘rinishlari orqali ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, do‘stlik, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi qadriyatlar targ‘ib qilindi. Bular yoshlar qalbidagi



milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashi bilan e’tiborli.

Festival yakunida faol ishtirokchilar sertifikatlar, esdalik sovg‘alari va maqtoov yoriqlari bilan taqdirlandi. Bu nafaqat ularni rag‘batlantirdi, balki kelgusida bu kabi tadbirlarda faolroq ishtirok etishga undadi.

Umuman olganda, “Milliy qadriyatlar” festivali yoshlar hayotida unutilmas voqea bo‘lib, ularni o‘z ildizlari bilan bog‘ladi, milliy merosni asrab-avaylash borasida mas’uliyat hissini uyg‘otdi va ularga g‘urur, mehr, iftixor tuyg‘ularini baxsh etdi.

O‘g‘ilshod XOLMUROVA,
Milliy libos va san’at fakulteti tyutori.

AMIR TEMUR FENOMENI ADABIY MANBALARDA

Amir Temurga bag'ishlab yozilgan asarlar yillar, asrlar o'tgan sari o'z yurtiga ozodlik baxshida etgan, O'rta Osiyoda qudratli markazlashgan davlat qaror toptirgan Amir Temurga avlodlar qiziqish bilan qaraganlar. U haqida qanchadan qancha rivoyatlar to'qilgan, asarlar bitilgan. Ushbu manbalarda Sohibqiron Amir Temur fenomenining yozma manbalarga transformatsiyasi amalga oshirilgan bo'lib, ushbu yozma manbalar tasnifi maqolamiz mobaynida quyidagicha aks etadi:

Tarixiy solnomalar – “Zafarnoma” va tarixiy asarlarda Amir Temur siymosi. Amir Temurning bolalik, o'spirinlik hayoti, siyosiy va jangovar faoliyati haqida hikoya qiluvchi kitoblar, ya'ni “Zafarnoma”larda Amir Temur faoliyati, asosan, harbiy yurishlari real tasvirlangan. Asar mualliflari Amir Temur bilan zamondosh va harbiy yurishlarida bevosita ishtirok etgan shaxslar bo'lgan. Bu tipdagi asarlarga Gʻiyosiddin Ali ibn Jamol Yazdiyning “Hindustonning gʻazavoti roʻznomasi”, Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma”lari, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” nomi bilan mashhur bo'lgan “Ajoyib al-maqdur fi-tarixi Taymur” va boshqa ko'plab asarlarni aytish mumkin.

Amir Temur saroyida bo'lgan elchilarning kundaliklarida Amir Temur siymosi. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga – Temur saroyiga sayohat kundaligi” (1403-1406) asari Sohibqiron Amir Temurning hayoti va bebeho tarixiy xizmatlariga doir nodir tarixiy manbalardan biridir. “Kundalik” Kastiliya va Leon qiroli Enriko III (1390-1407) tomonidan Amir Temur huzuriga yo'llangan Rui Gonsales de Klavixo boshliq elchilar bosib o'tgan ulkan va mashaqqatli yo'l xotiralaridan iborat bo'lib, u ispan elchisining 1403-1406-yillarda O'rta Yer dengizi sohilidagi mamlakatlarda, Turkiyada, Kavkaz orti yerlarida, Eronda va O'rta Osiyoda, asosan, Amir Temur saltanatida hamda bevosita uning saroyida ko'rganlarini, ushbu davrda elchining o'z qalbidan kechgan o'y-fikrlarini ham aks ettirgan.

Istiqlolga erishigunimizcha Klavixoning Amir Temur haqidagi mashhur “Kundalik” asarini o'zbek tiliga o'girib, xalqimizga taqdim etish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Hukmron mustabid sho'ro tuzumi siyosati, mafkurasi Sohibqiron Amir Temurning tarixiy xizmatlari u yiqda tursin, hatto nomini eshitishni ham xushlamagan. Klavixoning “Kundalik” nomli asari ilk marta 1582-yilda Sevilya shahrida Argote de Molina tomonidan “Xistoriya del Grant Tamorlan” (“Buyuk Temur tarixi”) nomi bilan dunyo yuzini ko'rdi. Kitobning bunday nomlanishi biroz izoh talab qiladi. Chunki Klavixo o'z asarining boshidan oxirigacha Sohibqironni “Temurbek” yoki “Ulug' amir” deb, katta ehtirom bilan tilga oladi. Klavixo o'z asarining 71-bobida shunday yozadi: “Temurbekning asli ismi biz ataganimizday Temurlan emas, Temurbekdir. Chunki Temurbek ularning o'z tilida “Temur podsho” degani, podsho esa ularning tilida “bek”... Uni tahqirlash ma'nosida “Temurlan”, ya'ni oqsoq Temur deb ataydilar”.

Ispaniyada ushbu asar 1779-yilda Amirola degan noshir tomonidan Kastiliya qirolligiga bag'ishlangan yilnomalar va memuarlar to'plamining uchinchi jildi ichida chop etildi. 1782-yilda esa Antonio Sancha ismli noshir ispanlarga uni yana alohida kitob holida taqdim etdi. Nihoyat, 1943-yilda Madiridda atoqli tarixchi olim Ferdinand Lopes Estrada tomonidan “Kundalik”ning ispan tilidagi navbatdagi nashri amalga oshirildi. Ensiklopedik, tarixiy mazmunli bu asar tez orada Yevropada ham mashhur bo'lib ketdi.


Klavixoning ushbu asari sahifalarida Amir

Temur fenomeni xuddi tirikday gavdalanib turadi. Bunga sabab, Klavixo bevosita Sohibqiron saroyida birmuncha muddat yashab, u bilan qayta-qayta ko'rishgan, yuzma-yuz muloqotda bo'lgan. Elchi Sohibqiron Amir Temurni turlicha sharoitlarda – saroy a'yonlari, xorijiy elchilar, oddiy xalq va saltanat amirlari bilan uchrashuvlar, temuriy shahzodalar va malikalar bilan munosabatlar vaziyatida kuzatgan. Amir Temur fenomeni va uning saltanatiga qiziqqan yer yuzidagi barcha kishilar Klavixo “Kundalik”idan o'zi uchun boy va qiziqarli ma'lumotlarni topishi mumkin.

“Kundalik”da o'sha vaqtlarda Amir Temur qo'l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli, aholining kun kechirishi, Temur va yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do'konlar, ustaxonalar va shu kabi e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar vatanimizning o'sha vaqtlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, ota-bobolarimiz turmush tarzi, eng asosiysi, Sohibqiron Amir Temur fenomenining yozma manbalardagi transformatsiyasining nodir namunasi sifatida e'tiborga molikdir.

Ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-didaktik asarlarda Amir Temur siymosi. XV-XX asr o'zbek mumtoz adabiyotining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-didaktik mavzudagi asarlarida ham u yoki bu sabablar bilan Amir Temur fenomeniga murojaatlarni ko'ramiz. Ayniqsa Amir Temur vafotidan so'ng temuriy shahzodalar o'rtasidagi taxt talashishlar, temuriylardan so'ng tarix sahnasiga kelgan xonliklar-u, amirliklar davri xalq orzusini ushaltirmadi. Shu boisdan ushbu davr ijodkorlari o'zlarining asarlarida Amir Temur siymosini gavdalanitirish bilan xalq orzu-istagidagi hukmdor obrazini yaratdilar. Albatta, xalq uchun parokandalikka yuz tutayotgan jamiyatni qayta birdamlikka yetaklovchi qahramon rahbar kerak edi. O'sha davr hukmdorlariga Sohibqiron fenomeni yaqqol namuna bo'lishini istashardi. Xususan, ulug' o'zbek mutafakkiri Nizomiddin Mir Alisher Navoiy besh asarida Amir Temur fenomeniga ehtirom bilan murojaat qiladi. “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin” dostonida, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Munshaot” hamda “Nasoyim ul-muhabbat”da Sohibqiron siymosiga chizgilar beradi va bu chizgilar temuriy shahzodalarga buyuk bobolariga munosib avlod bo'lishlari uchun navoiyona pand-nasihat ishorasi edi.

Amir Temur bilan bog'liq rivoyatomuz hikoyatlarda Amir Temur fenomeni. Amir Temur bilan bog'liq rivoyatomuz hikoyatlar o'sha davrlarda yaratilgan va bizgacha yetib kelgan qo'lyozma asarlar, rasmiy yozishmalar va boshqa manbalar asosida yozilgan. Rivoyatomuz hikoyatlarda Sohibqiron Amir Temurning og'ir, xavf-xatarlar bilan to'lib-toshgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatidan ayrim lavhalar beriladi. Tarixchi olim akademik Bo'riboy Ahmedovning “Amir Temur haqida hikoyalar” nomli kitobi o'tmish adabiy manbalar asosida yaratilgan, Sohibqiron Amir Temur fenomeni aks etgan asarlardan biridir. Ushbu kitobda “Suyunchi”, “Irim-sirim”, “Qissaxon”, “Maktub”, “Yasovuriylar bosqini”, “Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar”, “Lo'lining otini sug'orib, aqchasini ol”, “Amir Bekchik fitnasi”, “Do'zax azobi”, “Cho'loq chumolining jasorati”, “Mosh tabib”, “Sarbadorlar”, “Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan gaplar”, “Darveshlar”, “Shaharni qaytadin toshdin bunyod eturmiz”, “To'xtamish o'g'lon ilgari bizga o'g'il maqomida erdi”, “Amir Temur va ibn Xaldun”, “Avliyoota Ioann”, “Biz qadimiyipak yo'lini tikladik” sarlavhali Amir Temur bilan bog'liq rivoyatomuz hikoyatlar o'tmish manbalar asosida yaratilgan bitiklardir.



“Temurnoma”larda Amir Temur fenomeni.

O'sha davr fors-tojik adabiyotining ko'zga ko'ringan arboblardan biri Abdullo Xotifiy ijodida ham Amir Temur fenomeni asos qilib olingan asarlardan biri bu – “Temurnoma” masnaviysidir. “Boburnoma”da Mirzo Bobur Abdulla Xotifiyni yodga olganda, uning Abdurahmon Jomiya yaqin qarindoshligi borligini ta'kidlab o'tadi: “Yana Abdullohi masnaviyo'g' edi, Jomdindur. Mulloning xoharzodasi bo'lur, taxallusi “Xotifiy” edi. “Xamsa” muqobalasida masnaviylar aytibdur. “Haft paykar” muqobalasida aytqon masnaviysiga “Haft manzar” ot qo'yubdur. “Iskandarnoma” muqobalasida “Temurnoma” aytibdur. Ko'rinadiki, Zahiriddin Muhammad Bobur Xotifiy ijodiyotining yetakchi qirralarini qamrab olishga intilgan. Lekin xotimada Mirzo Bobur Xotifiydagi katta ijodiy qobiliyatdan ko'z yummagani holda, uning shaxsiyatidagi latofatsizlikni tanqid qiladi. Muhimi, Bobur Mirzo ma'lumotlari Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”idagi qaydlariga mos keladi. Alisher Navoiy ham Abdullo Xotifiydagi balandparvozona yurishni ma'qul ko'rmaydi. “Agarchi zohir yuzidin, – deb yozadi Alisher Navoiy, – Hazrati Maqdumi Nuranga o'zin qarobat tutar, ammo ma'ni yuzidin bag'oyat yiroqdur”. Alisher Navoiy va Bobur ma'lumotlari deyarli bir-biriga monand. Faqat birgina Amir Temur haqidagi masnaviysi nomida tafovut bor. Alisher Navoiy: “Iskandarnoma” muboqalasida “Zafarnoma” nazmiga mashg'ul erdi”, – deb yozadi. Bobur Mirzo esa uni “Temurnoma” tarzida keltiradi. Alisher Navoiy Xotifiy haqida ma'lumot berganda, Abdullo Xotifiy asarini endi yozishga kirishgan edi. Zahiriddin Bobur bu shoir masnaviysini nihoyasiga yetkazgandan keyin uni ko'rgan bo'lishi mumkin. Muallif esa o'z masnaviysini dastlab “Zafarnoma” deb atagan va asar intihosida uning nomini o'zgartirgan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, Amir Temur siymosining yozma manbalarga transformatsiyasini Sohibqironning o'z zamonasi davrida tarixiy asarlardan, keyingi davrlarda esa adabiy asarlardan boshlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu kitoblarni topish va ularni matniy tadqiq etib keng o'quvchi ommasiga yetkazish matnshunosligimiz oldiga turgan dolzarb muammolardan biridir.

Abdimurod ARSLONOV,
O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi mudiri, dotsent (PhD).

Munosabat

Diplom bor, lekin ish yo‘q. Mehnatga layoqatli minglab yoshlar bugun o‘z kelajagini xorijda izlashga majbur bo‘lyapti. Ish o‘rinlari yetarli deyishadi, lekin nega har qadamda ishsizlarni uchratamiz. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda har yili minglab yoshlar ish topa olmaydi. Ishsizlik darajasi oshib bormoqda. Lekin bu faqat rasmiy raqamlar, aslida ishsizlik bundan ham ko‘proq bo‘lishi mumkin. Ko‘plab fuqarolar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlamaydi yoki vaqtincha kun kechirish uchun boshqa sohalarga ketishga majbur bo‘lmoqda.

Ishsizlik nafaqat iqtisodiy muammo, balki jamiyatdagi keskinlik, ijtimoiy beqarorlik va yoshlarning kelajakka bo‘lgan ishonchini so‘ndirishga sabab bo‘luvchi jiddiy masaladir. Bugungi kunda ish topish tobora qiyinlashib bormoqda, bu esa ko‘plab fuqarolarni sarson qilishda davom etmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda aholi faqatgina chorvachilik va dehqonchilik bilan ko‘proq shug‘ullanishadi va ularning boshqa yaxshi korxonalarda ishlashga imkoni yo‘q, chunki qishloq joylarda aholini ish bilan ta‘minlash uchun yetarlicha ish o‘rni mavjud emas. Shuning uchun ham ularning muayyan qismi Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi mamlakatlarga oddiy ishchi sifatida ketishga majbur bo‘lmoqda. Ularning ham jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga, qulay, yaxshi maosh to‘lanadigan ish joylariga ega bo‘lishga va oila a‘zolarining bag‘rida yashashga haqqi bor, albatta.

Aholini ish bilan ta‘minlash bo‘yicha turli xil islohotlar olib borilayotganligiga qaramay bu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Chunki ishsizlik juda ko‘p muammolarga zamin yaratishi mumkin: jinoyatchilikning oshishi, oilalarda notinchlik paydo bo‘lishi, bolalar tarbiyasining buzilishi va h.k.. Bundan tashqari, ishsizlik nafaqat oilalarning daromadini kamayishiga, balki odamlarning o‘z-o‘zini qadrlashining yo‘qolishiga ham sabab bo‘lishi va kelajakka umidsizlik hissini ortishi – salbiy jihatlaridir. Eng yomoni, shaxsning shaxsiyati yo‘qolishiga olib keladi. Ishsizlikning ma‘lum darajaga yetishi hatto davlatchilik tanazzuliga ham sabab bo‘lishi mumkin. Ishsizlar ko‘payishi davlatni zaif qiladi, zaif davlatda esa ishsizlar yanada ko‘payadi. Shuning uchun, ishsizlik muammosini o‘rganish va unga yechimlarni izlash nafaqat muhim, balki juda dolzarb

ISHSIZLAR SONI KO‘PAYMOQDA...

yechim qayerda?

masaladir. Lekin dunyoning xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan biror davlatini oladigan bo‘lsak, unda, albatta, ishsizlik muammosi borligini ko‘rishimiz mumkin.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan ishsizlik deganda, ishchi kuchining ish joyi bilan ta‘minlanmaganligi va natijada, uning biron-bir qonuniy daromad manbayiga ega bo‘lmasligining muayyan holati tushuniladi. Odatda, jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish jamiyati talablariga ko‘ra ishlab chiqishadi. Ishsizlik – bir qism iqtisodiy faol aholining o‘ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat xazarisiga aylanishidir. O‘zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan me‘yoriy kuchga ega bo‘ldi (1998-yil 1-mayda ushbu Qonunning yangi tahriri qabul qilindi).

Mamlakatlarda mehnatda bandlik va ishsizlikni ko‘p yillik o‘rganish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mehnatga yaroqli aholining 94-95 foizi bandlik kasb etsagina iqtisodiyot meyorida rivojlanayotgan hisoblanadi.

Umumiy jihatdan O‘zbekistonda ishsizlik darajasiga ta‘sir ko‘rsatayotgan ayrim sabablarni keltirib o‘tamiz. Mamlakatda to‘la ish bilan bandlikka erishib bo‘lmaydi, davriy ishsizlik darajasi nolga teng bo‘lganda ham, tarkibiy va freksion ishsizlikda ma‘lum bir raqamlar qayd etib turiladi, bu mamlakat bo‘yicha ishsizlikning tabiiy darajasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ishsizlikning tabiiy darajasiga talabalarning soni yetarlicha hissa qo‘shmoqda. Statistika agentligining axborotiga ko‘ra, 2022-yil O‘zbekistonda 1 mln. 40 mingdan ortiq talaba oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotganligi bayon etilgan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda ishsizlikning tabiiy darajasiga 6.9% ulush qo‘shmoqda. Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarish hajmini va samaradorligini oshirish maqsadida yangi texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o‘tilyapti, bu butun bir sohaga ishchi kuchini va shu soha uchun zarur bo‘lgan mehnat resursiga talabni qisqartiradi. Bu o‘z-o‘zidan ish bilan band ishchilarni ishidan mahrum

bo‘lishiga olib keladi. Bunda ishsiz qolganlar ma‘lum bir yangi ko‘nikma va tajriba uchun o‘qitilishlari talab etiladi va jarayon uzoq davrni taqozo qiladi. Bu jarayonda strukturaviy ishsizlik yuzaga keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining 4.1-bandi “Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish” deb nomlanib, unda “yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining oqilona bandligini ta‘minlash, mehnat bozori infrastrukturasi mutanosibligi va rivojlanishini ta‘minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish” lozimligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, aholini ish bilan bandligini ta‘minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko‘rsatkich va indikatorlar 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ishsizlikni oldini olishda ko‘plab chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun 2025-yil davomida viloyatlardagi va chekka qishloqlardagi aholi bandligiga ko‘maklashish, ish bilan bandligini ta‘minlash maqsadida turli xildagi maqsadli loyihalar amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Jon Meynard Keynes (1883-1946) aholini ish bilan bandligi bo‘yicha yaratilgan iqtisodiy nazariyaning asoschisidir. Uning ishsizlik haqidagi asari ya‘ni “Aholining ish bilan bandligi, foiz va pulning umumiy nazariyasi” bo‘lib, ushbu asar 1936-yilda bosilib chiqqan. Keynes G‘arb iqtisodiyotchilari orasida birinchi bo‘lib ishsizlik to‘g‘risidagi tasavvurni to‘liq o‘rganib chiqdi, u bunday ishsizlik yalpi samarali talab yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi degan xulosaga keldi. Keynes nazariyasining asosini samarali talab tamoyili tashkil etadi. Agar yalpi talab

tadbirkor kutgan darajadan pastroqqa tushsa va shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoni bo‘lmasa, ishlab chiqarish qisqarishi ro‘y beradi, bu esa ishsizlikka olib keladi, deb ta‘kidlagan edi Keyns. Aksincha, yalpi talab kutilgan darajadan yuqoriroq bo‘lsa, ishlab chiqarish rivojlanishga turtki oladi. Muvozanat o‘rnatilishiga olib keladigan yalpi talab darajasi samarali hisoblanadi. J.Keyns ishsizlikni sababiga quyidagich ta‘rif bergan “Ishsizlikning davosi sifatida ish haqini pasaytirish g‘oyasini qat‘iy inkor etib, o‘ziga investitsiyalar, davlat xarajatlari va sof eksportdan tashqari iste‘mol xarajatlarini – bundan ham so‘nggisi – umumiy talabning asosiy qismi, ham qamrab oladigan umumiy talabdan kelib chiqadi”. Bu nazariya bundan 100 yilcha oldin yaratilganiga qaramay, hozirda ham amaliy va nazariy fikrlari bilan iqtisodiyotda hukmronlik qilmoqda.

Xulosa o‘rnida, aholining doimiy ravishda yaxshi ta‘minlangan maosh bilan band bo‘lishi iqtisodiy rivojlanishni, yaxshi yashash tarzini va farovon hayotni ta‘minlaydi. Ammo, mamlakatda yaxshi rivojlantirilmagan tizim, jumladan, aholini yaxshi malaka bilan ta‘minlash, ularga mos ish o‘rinlarini topib berish tizimlari, aholining bandlik darajasiga salbiy ta‘sir etadi. Bu esa aholining ishlashga rag‘batini so‘ndirishi, yaxshi mahoratga ega bo‘lmagan aholi yaxshi ish bilan ta‘minlanmasligi va har qanday tashqi muhitdan kelgan raqobatda yutqazishga majbur bo‘ladi. O‘z-o‘zidan mehnat resursining mamlakatdan tashqari chiqishi, inson kapitalining ketib qolishi kuzatiladi. Bu jarayon uchun Mehnat birjasini rivojlantirish, mahorat va malaka o‘rgata oladigan xususiy sektorlarni joriy qilish talab etiladi.

Mamlakat xarajatlarining bir qismi shu sektorlarga yo‘naltiriladi. Bunday tizimning joriy etilishi, ishlash talabida bo‘lgan malakali aholini hech birini ishsiz qoldirmaydi. Shuningdek, mahorat va malaka o‘rgatishga asoslangan sektorlar doimiy tarzda malakali xodimlarni yetishtirib chiqaradi, va har qanday raqobatga bardoshli ishchilarni tarbiyalaydi. Bunday tizim, ishchilarni har vaqt qayta tayyorlashga yoki mahoratlashga tayyor bo‘lganligi sababli, har qanday texnologik rivojlanishi ishchilarning davriy ishsiz bo‘lib qolish oldini oladi.

Barno QUDRATOVA,
O‘zMU talabasi.
(“Termiz unversiteti” uchun maxsus).

Lavhdagi hayot

MUVAFFAQIYAT KALITI

Muvaffaqiyat siri – oddiy narsalarni noodatiy darajada yaxshi bajarishdir.

JON D. ROKFELLER

Qanchalik ko‘p mehnat qilsam, shunchalik omadli bo‘lib ko‘rinaman.

TOMAS JEFFERSON

Muvaffaqiyat – bu yakun emas, mag‘lubiyat ham halokat emas: muhimi, davom ettirishga bo‘lgan jasoratdir.

UINSTON CHERCHILL

Boshlashning yo‘li – gapirishni to‘xtatib, harakat qilishdir.

UOLT DISNEY

Tanqidlarga chalg‘imang. Esda tuting – ba‘zi odamlar muvaffaqiyatning yagona ta‘mini sizdan bir bo‘lak olish orqali his qilishadi.

ZIG ZIGLAR

Muvaffaqiyat odatda, uni izlashga vaqt topolmaydigan odamlarga keladi.

GENRI DEVID TORO

Muvaffaqiyat harakat bilan bog‘liq ko‘rinadi. Muvaffaqiyatli odamlar harakat qilishda davom etishadi. Ular xato qilishadi, lekin taslim bo‘lishmaydi.

KONRAD HILTON

Muvaffaqiyat tasodif emas. Bu mehnat, sabot, o‘rganish, o‘qish, fidoyilik va eng muhimi – qilayotgan ishingiz yoki o‘rganayotgan narsangizni sevishtirish natijasidir.

PELE

Men bugun kim bo‘lsam, kecha qilgan tanlovlarim sababli shunday bo‘ldim.

ELEANOR RUZVELT

O‘zimiz haqimizda nima deb o‘ylasak, qobiliyatimiz ham xuddi shunday shakllanadi.

SYUZAN L. TEYLLOR

Muvaffaqiyat har doim buyuklik haqida emas. Bu doimiylik haqida. Davomiy mashaqqatli mehnat muvaffaqiyatga olib keladi. Buyuklik keltiradi.

DVEYN JONSON

Mashaqqatli mehnatning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi.

TOMAS EDISON

Ingliz tilidan Xorijiy filologiya fakulteti
Dilnoza RAHIMOVA
tarjimai.

ISSN:20199203  20199203		TERMIZ UNIVERSITETI		Gazeta Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-martda 11-004-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.		Mas‘ul kotib: Alibek Omonturdiyev	
Bosh muharrir: Shofiyev Obid Baxtiyorovich		Hamkorimiz: Termiz davlat universiteti		Gazeta oyida ikki marta chop etiladi. Tahririyat manzili: Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: +99893-222-20-21. Elektron manzil: termizuniversiteti@umail.uz		Navbatchi muharrir: Farhod Abdumurodov	
Muassis: «Termiz davlat universiteti nashr-matbaa markazi» MCHJ		Tahrir hay‘ati: Abduqodir Toshqulov Bekpo‘lat Umurqulov O‘ral Xoliyorov Dilfuza Xamzayeva Nuriddin Achilov		Bahosi kelishilgan narxda. Hajmi 2 bosma toboq. Qog‘oz bichimi A-3. Adadi – 2000. Buyurtma № G -	Gazeta «Termiz universiteti» tahririyatining kompyuter markazida terildi va sahifalandi.	Sahifalovchi: To‘ra Rahmonqulov	
Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.				Bosmaxona manzili: Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A-uy. Gazeta «Surxon tongi», «Заря Сурхана» birlashgan tahririyati bosmaxonasida chop etildi.			